



# ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **5 904** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **21** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **5 883** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-iyul oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **10 857,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **106,0 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **770,8** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **108,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **10 086,8** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **105,8%**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 699,9** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **103,9 %**) tashkil etdi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>10 857,6</b>	<b>106,0</b>
Andijon sh.	3 060,7	110,4
Xonobod sh.	113,2	102,7
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	436,4	111,3
Andijon	699,8	102,7
Baliqchi	701,4	103,8
Bo'ston	164,4	110,4
Buloqboshi	349,6	102,9
Jalaquduq	364,7	111,4
Izboskan	383,5	108,2
Ulug'nor	146,3	102,4
Qo'rg'ontep'a	739,7	108,2
Asaka	900,1	100,8
Marhamat	495,9	102,6
Shahrixon	1 410,6	101,8
Paxtaobod	495,3	102,0
Xo'jaobod	396,0	107,7


2023- yilning yanvar-iyul oylarida 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (**10,4 %**), Bo'ston (**10,4 %**), Oltinko'l (**11,3 %**) va Jalaquduq (**11,4 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI




**Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-iyul)**



So'nggi 5 yillikda (2019– 2023 - yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori o'sish 2022- yilga tog'ri kelib, **111,2 %** ni tashkil qildi.


**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)  
(2022- yil, 2023- yil yanvar - iyul oy)**



2023- yilning yanvar-iyul oyida o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil qildi.



## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **28,2 %** bilan **3 060,7 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri **1,0 %** bilan **113,2 mlrd so'mni** tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **10 086,8** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **5,8 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,9 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **8,9 %** ga o'sdi va **770,8** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **7,1 %** ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,1 %), Qo'rg'ontepə (99,1 %), Shahrixon (98,7 %) va Buloqboshi (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 7,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (16,6 %), Andijon (7,8 %), Jalaquduq (7,2 %) va Oltinko'l (6,6 %) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 252,3</b>	<b>103,8</b>
Andijon shahar	6 499,7	108,0
Xonobod shahar	2 504,8	100,4
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	2 298,3	108,8
Andijon	2 487,6	100,5
Baliqchi	3 305,4	101,7
Bo'ston	2 148,9	108,3
Buloqboshi	2 323,1	100,9
Jalaquduq	1 860,8	109,3
Izboskan	1 525,4	106,1
Ulug'nor	2 314,3	100,6
Qo'rg'ontep'a	3 258,6	106,3
Asaka	2 578,3	98,6
Marhamat	2 705,5	100,5
Shahrixon	4 424,6	99,4
Paxtaobod	2 413,8	99,8
Xo'jaobod	3 358,7	104,8

2023- yilning yanvar-iyul oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 252,3** ming so'mni (2022- yilning yanvar - iyul oyiga nisbatan **103,8 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**6 499,7** ming so'm), Shahrixon (**4 424,6** ming so'm) va Xo'jaobod (**3 358,7** ming so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyul oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 699,9** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **103,9 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **720,5** mlrd so'mni (**122,1 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **979,4** mlrd so'mni tashkil etdi (**105,6 %**).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (yanvar-iyul, foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.



## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd so'm	2022- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 699,9</b>	<b>103,9</b>
Andijon shahar	384,3	119,8
Xonobod shahar	2,8	38,1
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	30,5	125,8
Andijon	51,4	88,2
Baliqchi	101,0	92,9
Bo'ston	18,1	172,6
Buloqboshi	59,9	93,7
Jalaquduq	54,5	159,4
Izboskan	20,8	151,6
Ulug'nor	58,8	99,1
Qo'rg'ontep'a	88,3	227,5
Asaka	190,5	109,7
Marhamat	84,9	82,1
Shahrixon	325,4	91,3
Paxtaobod	148,6	88,0
Xo'jaobod	80,0	85,5

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2023- yilning yanvar-iyul oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **720,5** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**250,7** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Mlrd so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>250,7</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>209,5</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) <b>92,4</b>
	<b>Tovuq go'shti</b> <b>31,4</b>
	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar) <b>28,5</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...) <b>17,1</b>
	<b>Tuxum</b> <b>22,7</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</b> <b>4,6</b>
	<b>Ziravorlar</b> <b>29,7</b>
	<b>Tuzlamalar</b> <b>16,6</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi) <b>8,1</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> <b>9,2</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-iyul oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **979,4** mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **834,7** mlrd so‘m, qo‘y va echkilar – **130,3** mlrd so‘mni, otlar – **7,5** mlrd so‘mni, parrandalar – **6,9** mlrd so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd so‘m
2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	490,4
1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	207,1
1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	137,2
Qo‘ylar	127,2
Otlar	7,5
Echkilar	3,1
Kurka, o‘rdak, g‘oz	4,3
Tovuqlar	2,0
Quyonlar	0,4
Qushlar	0,2



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 146** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 145** tani tashkil qildi

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>201,8</b>	<b>108,7</b>
Andijon shahar	92,8	114,8
Xonobod shahar	2,4	104,9
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	9,7	105,0
Andijon	15,4	103,0
Baliqchi	3,9	104,1
Bo'ston	4,7	103,9
Buloqboshi	1,7	104,0
Jalaquduq	4,0	105,3
Izboskan	5,6	104,6
Ulug'nor	2,2	105,1
Qo'rg'ontep'a	8,2	100,9
Asaka	8,7	105,2
Marhamat	6,0	104,5
Shahrixon	25,2	103,8
Paxtaobod	6,7	105,2
Xo'jaobod	4,7	104,3


2023- yilning yanvar-iyul oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **201,8** mlrd so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **108,7 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **92,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **2 079,1** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **114,0 %** ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 038,4** mlrd so'm (o'sish sur'ati – **126,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **1 040,6** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **103,7 %**) tashkil qildi.

### **Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda**



yanvar-iyul 2023- yil



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot



	Hajm, mlrd so'm	2022- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 079,1</b>	<b>114,0</b>
Andijon shahar	1 436,8	116,8
Xonobod shahar	0,2	106,2
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	84,4	103,1
Andijon	75,6	103,1
Baliqchi	2,3	104,1
Bo'ston	0,2	104,4
Buloqboshi	0,5	104,6
Jalaquduq	2,2	103,7
Izboskan	1,0	104,7
Ulug'nor	0,2	105,6
Qo'rg'ontep'a	24,2	103,2
Asaka	234,7	135,1
Marhamat	7,9	103,2
Shahrixon	7,6	103,8
Paxtaobod	1,7	104,0
Xo'jaobod	199,7	91,6

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**1 436,8** mlrd so'm), Asaka (**234,7** mlrd so'm) va Xo'jaobod (**199,7** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**yanvar-iyul 2023- yil**

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyul oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 336,4** mlrd so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,7 %** ga o‘sdi.



**Savdo aylanmasi ulushi**

**Yirik korxonalar**

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **3 042,1** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,9 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **91,2 %** ni tashkil qildi.



**yanvar-iyul 2023- yil**

**16**


## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Oltinko'l, Jalaquduq va Marhamat tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **4 812** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **10** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **4 802** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar- iyul oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 336,4</b>	<b>106,7</b>
Andijon shahar	1 223,1	103,3
Xonobod shahar	15,8	105,0
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	188,9	124,7
Andijon	320,0	119,0
Baliqchi	219,6	102,8
Bo'ston	82,9	104,3
Buloqboshi	73,0	105,7
Jalaquduq	39,3	121,0
Izboskan	62,8	103,6
Ulug'nor	36,0	106,2
Qo'rg'ontep'a	81,2	104,6
Asaka	101,6	104,4
Marhamat	56,0	113,0
Shahrixon	733,3	103,1
Paxtaobod	59,3	106,0
Xo'jaobod	43,5	159,6





Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 74 228-30-57